



O'zbekiston Respublikasi
madaniyat vazirining
2022-yil "19" 09 dagi
341 -son buyrug'i bilan
tasdiqlangan

**YUNUS RAJABIY NOMIDAGI
O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATI INSTITUTI**

USTAVI

Toshkent – 2022-yil

O‘zbekiston Respublikasi
madaniyat vazirining
2022-yil “ 19 ” sentabr
dagi 371 - son buyrug‘iga
2-ilova

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti USTAVI

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Ustav O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son Farmoni va “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4730-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining “Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2020-yil 2-sentabrdagi 536-son qaroriga muvofiq “Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti” (keyingi o‘rinlarda Institut deb yuritiladi) faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Institut O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining tashkiliy tuzilmasiga kiradi.

3. Institut davlat oliy ta’lim muassasasi hisoblanib, oliy ta’limning asosiy va qo‘shimcha ta’lim dasturlarini bajarish bo‘yicha ta’lim faoliyati bilan shug‘ullanadi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq o‘quv-pedagogik, ilmiy-metodik, ilmiy, ijodiy, konsert-ijrochilik, shuningdek, boshqa faoliyatlarni amalga oshiradi hamda ta’lim xizmatlarini ko‘rsatadi.

4. Institut o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Madaniyat vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, boshqa mutasaddi vazirlik hamda idoralarning normativ-huquqiy hujjatlari va mazkur Ustavga amal qiladi.

5. Institut yuridik shaxs hisoblanadi. Operativ boshqaruvida o‘ziga xos maxsus mol-mulkka ega va ushbu mol-mulk bo‘yicha o‘z majburiyatlariga muvofiq javob beradi, o‘z nomidan mol-mulk sotib olishi va mulkiy hamda nomulkiy huquqlarni amalga oshirishi, zimmasiga majburiyat olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Mustaqil balansga, bank muassasalarida hisob-kitob va boshqa; shu jumladan, valyuta bo‘yicha hisob raqamlariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi yozilgan muhrga, shtamplar va boshqa rekvizitlarga ega bo‘ladi.

Institut joylashgan yuridik manzil: O‘zbekiston Respublikasi, 100027, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 31-uy.

Institutning o'zbek, rus va ingliz tillaridagi rasmiy to'liq va qisqa nomi:
- o'zbek tilida: Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti (Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI);
- rus tilida: Узбекский национальный институт музыкального искусства имени Юнуса Раджаби (УНИМИ имени Юнуса Раджаби);
- ingliz tilida: Institute of Uzbek national musical art named after Yunus Rajabi (IUNMA named after Yunus Rajabi)

II. Institutning asosiy vazifalari

6. Institutning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaxsning intellektual, madaniy va ma'naviy - ahloqiy kamol topishiga bo'lgan ehtiyojlarini oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ma'lumot olishi orqali erishishni qondirish;
- har tomonlama rivojlangan sodiq shaxsni, mustaqil davlat fuqarosini, o'z Vatani fidoyisi, xalq, jamiyat va oila oldidagi o'z mas'uliyatini his qiluvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, xalq an'analarini boyituvchi va mustahkamlovchi, ko'hna va benazir, boy va o'ziga xos musiqiy merosimizni chuqur ilmiy asosda o'rganuvchi, Vatanimiz kelajagi uchun vijdonan va halol mehnat qiluvchi etib shakllantirish;
- ilmiy-pedagogik xodimlar va ta'lim oluvchilarning tadqiqotlari va ijodiy faoliyatlari orqali fanni taraqqiy ettirish, olingan natijalardan ta'lim jarayonida foydalanish;
- milliy musiqa san'ati sohasida oliy ma'lumotli mutaxassislarni, ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash;
- jamiyatning ahloqiy, madaniy va ilmiy qadriyatlarini saqlash va boyitish;
- milliy musiqa san'ati sohasida jahon bozorida raqobatbardosh yuqori malakali kadrlarni tayyorlash;
- aholi o'rtasida bilimlarni tarqatish, uning ma'naviy-ma'rifiy va madaniy darajasini ko'tarish.

III. O'quv-tarbiyaviy va ilmiy-metodik ishlarning subyektlari, ularning huquq va majburiyatlari

Institut rektorining buyrug'i bilan o'qishga qabul qilingan shaxs institutning talabasi hisoblanadi. Talabaga talabalik guvohnomasi hamda baholash (kredit) daftarchasi beriladi.

Institutga qonunchilikda belgilangan tartibda umumiy o'rta (bolalar musiqa va san'at maktablari guvohnomasi bilan), o'rta-maxsus ta'lim ma'lumotiga ega bo'lgan shaxslar arizalariga binoan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga talabalarni qabul qilish tartibi va qoidalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan ijodiy (kasbiy) imtihonlar natijasida to'plangan ballar yig'indisiga ko'ra amalga oshiriladi.

7. Institutga qabul barcha uchun (ham grantlar, ham to'lov-kontrakt bo'yicha) teng huquqlilik, yagona qabul qoidalari va yagona tanlov asosida amalga oshirilib, ijodiy (kasbiy) imtihon eng yuqori ball to'plagan abituriyentlarning davlat grantlari bo'yicha birinchi navbatda qabul qilinish huquqi ta'minlanadi. Qolgan abituriyentlar ijodiy (kasbiy) imtihonda to'plagan ballari reytingi asosida belgilangan to'lov-kontrakt kvotalari doirasida, kvotadan tashqari oshirilgan to'lov-kontraktlari asosida (institut binosining sig'imini hisobga olgan holda) qabul qilinish huquqiga egadirlar. Qonunchilikka muvofiq ijodiy (kasbiy) imtihonlarsiz muayyan imtiyoz asosida ham o'qishga qabul qilish kafolatlanadi.

8. Institutning talabalari quyidagi huquqlarga ega:

- fan, texnika, zamonaviy texnologiyalar, madaniyat, san'at, ijodiyot yutuqlariga mos keluvchi bilimlar olishga;
 - institut axborot-resurs markazida mavjud bo'lgan kitoblar, davriy nashrlar, elektron ta'lim vositalaridan, fono-videoteka, audio-video yozuvlaridan, konsert zallaridan belgilangan tartibda bepul foydalanishga;
 - bepul maslahatlar va yo'l-yo'riqlar olishga;
 - auditoriyalar, ta'lim jarayoniga oid vositalardan o'rnatilgan tartibda bepul foydalanishga;
 - ta'lim jarayoni samaradorligi va ta'lim sifatini oshirish yuzasidan o'z taklif-mulohazalarini, tanqidiy fikrlarini belgilangan tartibda ta'lim muassasasi, dekanat va kafedra rahbariyatiga bildirish va ularni ko'rib chiqilishini talab qilishga;
 - institut va fakultet miqyosida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarda ishtirok etishga;
 - ilmiy tadqiqot ishlarida va ilmiy konferensiyalarda qatnashishga, ularning natijalarini nashr etish va bu haqda axborotlar berishga;
 - institutda qonuniy ravishda faoliyat yuritayotgan jamoat birlashmalariga a'zo bo'lish va ular ishida qatnashishga;
 - talaba sifatli va yuqori saviyada bilim olish, tanlagan ixtisosligi bo'yicha yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishish uchun zarur bo'lgan qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa huquqlardan foydalanishga haqlidir.
- Talaba o'z huquqlarini suiste'mol qilmasligi, bu huquqlardan o'zga shaxslar manfaatiga zid maqsadlarda foydalanmasligi shart.

9. Davlat grantlari bo'yicha va to'lov-kontrakt asosida o'qitishning ishlab chiqarishdan ajralgan holdagi shaklida ta'lim olayotgan talabalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib va miqdorlarda stipendiya bilan ta'minlanadilar. To'lov-kontrakt asosida o'qish talaba ixtiyoriga qarab stipendiyali yoki stipendiyasiz bo'lishi mumkin.

Talabalar tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyasi, Beruniy, Ibn Sino, A.Navoiy, M.Ulug'bek, Islom Karimov nomidagi va boshqa Davlat stipendiyalari, shuningdek, o'qishga yo'llagan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tayinlangan stipendiyalarni olish huquqiga egadirlar.

10. Harbiy xizmatni o'tash, salomatligini tiklash, homiladorlik va tug'ish, shuningdek, bolalarni parvarish qilish ta'tillari davrida talabalarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 344-son qarori asosida

akademik ta'vil berilishi mumkin.

11. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq kunduzgi o'quv shaklida ta'lim olayotgan talabalarga institutda o'qiyotgan vaqti davomida harbiy xizmatga chaqirish muddatini kechiktirish imkoni beriladi.

12. Institutning talabalar turar joyiga muhtoj talabalari oliy ta'lim muassasasining mavjud talabalar turar joylaridan sanitariya me'yorlari va qoidalariga javob beradigan joy bilan ta'minlanadi. Talabalar turar joyi to'lovi institut tomonidan kommunal-maishiy xizmatlar, sharoitlar yaratish uchun xarajatlarni inobatga olgan holda Institut kengashi tavsiyasi bilan rektor buyrug'i asosida belgilanadi. Turar joyga muhtoj talabalar mavjud bo'lgan holda institutning talabalar turar joylari maydonidan boshqa maqsadlarda foydalanish (ijaraga berish, boshqa kelishuvlar)ga ruxsat etilmaydi.

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'quv shaklida ta'lim olayotgan talabalarga o'qishdan bo'sh vaqtlarida institutning o'zida, shuningdek, boshqa joylarda ishlashga ruxsat etiladi.

13. Institutdan o'z xohishi yoki uzrli sabablarga ko'ra chetlashtirilgan talaba, Talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi va qoidalari asosida qayta o'qishga tiklanish huquqiga ega.

Ilgari institutdan ma'muriyatning tashabbusi bilan chetlashtirilgan shaxslarni, barcha o'quv shakllari bo'yicha talabalar safiga qayta tiklash to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

Institutning talabalari belgilangan tartib va qoidalar asosida boshqa oliy ta'lim muassasalariga o'qishlarini ko'chirish (o'qishga qayta tiklanish) huquqiga O'zbekiston Respublikasi hududida ta'lim faoliyatini olib borish uchun litsenziyaga ega bo'lmagan nodavlat oliy ta'lim muassasalari, shuningdek boshqa mamlakatlar oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari (markazlar, bo'limlar, o'quv-maslahat punktlari va qoidalar)dan talabalarni Institutga o'qishini ko'chirish (o'qishga tiklash) mumkin emas.

Talabalar o'qishini bir oliy ta'lim muassasasidan boshqasiga ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi va qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

14. Institut talabalari oliy ta'limning ta'lim dasturlari va o'quv rejasida nazarda tutilgan bilimlarni egallashlari, topshiriqlarning barcha turlarini belgilangan muddatda bajarishlari zarur hamda Institutning Ustaviga, Ichki tartib qoidalari va Talabalar turar joyi qoidalariga rioya etishlari shart.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, talabalarni o'qish vaqti hisobidan ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga jalb etish man etiladi.

15. Ushbu Ustav va oliy ta'lim muassasasining Ichki tartib-qoidalarida nazarda tutilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda talabaga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralari ko'riladi: xayfsan hamda talabalar safidan chetlatish.

Talaba institutdan quyidagi hollarda ham chetlashtirilishi mumkin:

- a) o'z xohishiga binoan;
- b) o'qishning boshqa ta'lim muassasasiga ko'chirilishi munosabati bilan;
- d) salomatligi tufayli (tibbiy komissiyasi ma'lumotnomasi asosida);
- e) akademik o'zlashtira olmaganligi (qarzdorligi) uchun;
- f) o'quv intizomini va oliy ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalarini

buzganligi uchun;

g) bir semestr davomida darslarni uzrli sabablarsiz 74 soatdan ortiq qoldirganligi sababli;

h) o'qish uchun belgilangan to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (to'lov-kontrakt bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun);

i) talaba sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;

j) vafot etganligi sababli.

Institut ma'muriyati tashabbusi bilan talabalarni o'qishdan chetlashtirish talabalar kasaba uyushmasining roziligini inobatga olgan holda (kasaba uyushmasi a'zosi bo'lgan talabalar uchun) amalga oshiriladi. Shuningdek, talaba mazkur qoidalarning 14-bandi "d" kichik bandiga ko'ra chetlashtirilayotgan holda, ta'lim muassasasining O'zbekiston Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti bilan ham kelishilishi mumkin.

Intizomiy jazoga tortilgan talaba o'ziga qo'llanilgan jazo chorasining qonuniyligi va adolatliligi yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda norozilik bildirishi mumkin.

Talabaga nisbatan qo'llanilgan intizomiy jazo yuzasidan ma'lumot uning shaxsiy yig'ma jildida saqlanadi.

Intizomiy jazolar talabalarining kasallik yoki ta'tilda bo'lgan vaqti hisobga olinmagan holda xatti-harakat aniqlangandan so'ng, bir oydan va hatti-harakat sodir etilganidan so'ng olti oydan kechiktirilmay qo'llaniladi. Talabalarni kasallik paytida, akademik ta'til yoki homiladorlik hamda tug'ish holati bilan bog'liq bo'lgan ta'til paytlarda talabalar safidan chetlashtirish mumkin emas.

Kasallik payti talaba (yoki uning ota-onasi) tomonidan ariza va tegishli ma'lumotnomalar bilan, odatda, bir haftadan kechiktirilmasdan Institutga ma'lum qilinadi.

16. Institutda ta'limning ishlab chiqarishdan ajralgan holdagi o'quv shakllarida muvaffaqiyatli o'qiyotgan talabalarga ularning ish joyidan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining tegishli moddalarida nazarda tutilgan imtiyozlar (maosh saqlangan yoki saqlanmagan holda qo'shimcha ta'til, institut joylashgan manzilga borish va kelish uchun yo'l haqi va boshqalar) berilishi mumkin.

Tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar.

17. Institutning tayanch doktorantlari va mustaqil izlanuvchilari muayyan yo'nalish bo'yicha ilmiy-ijodiy tadqiqot olib borayotgan va tegishli ilmiy unvon, ilmiy darajani olish uchun dastur yoki dissertatsiya tayyorlayotgan shaxslar hisoblanadi.

Oliy ma'lumotli mutaxassis yoki magistr diplomiga ega, oliy ta'lim muassasasida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun ilmiy tadqiqot ishini olib borayotgan shaxs - tayanch doktorant hisoblanadi.

Institutga (kafedraga) biriktirilgan va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tayyorlayotgan shaxs - mustaqil izlanuvchi hisoblanadi.

18. Institut magistr darajasiga ega bo'lgan, ilmiy-ijodiy izlanish olib borish qobiliyatini namoyon eta olgan shaxslar uch yillik muddatga tayanch doktoranturaga qabul qilinadi.

Tayanch doktoranturada o'qish ishlab chiqarishdan ajralgan holda amalga oshiriladi va o'qish davri uch yildan oshmasligi kerak. Magistrlik diplomini taqdim etishda bakalavrluk diplomini ham ko'rsatishi lozim.

Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash tayanch doktoranturadan tashqari mustaqil izlanuvchi shaklida ham amalga oshirilishi mumkin.

Mustaqil izlanuvchilikda o'qish ishlab chiqarishdan ajralmagan holda amalga oshiriladi va o'qish davri uch yildan oshmasligi kerak. Magistrlik diplomini taqdim etishda bakalavrlik diplomini ham ko'rsatishi lozim.

Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun mustaqil izlanuvchilikka magistr darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilgunga qadar olingan oliy ma'lumotga ega bo'lgan, nomzodlik dissertatsiyasi ustida mustaqil izlanishlar olib borayotgan, fan va texnikaning tegishli sohasida yetarli bilimga hamda tanlagan ixtisosligi bo'yicha kamida ikki yillik stajga ega bo'lgan shaxslar ishtirok etishlari mumkin.

Oliy ta'lim muassasasining professor-o'qituvchilari tarkibi, o'quv-yordamchi va ma'muriy-xo'jalik xodimlari (personaji):

19. Institutda professor-o'qituvchilar tarkibi, ilmiy xodimlar, muhandislik-texnika, ma'muriy-xo'jalik, ishlab chiqarish, o'quv-yordamchi (shu jumladan katta o'qituvchi va o'qituvchi lavozimiga tenglashtirilgan konsertmeysterlar) va boshqa xizmatchilar lavozimlari mavjud.

Professor-o'qituvchilar tarkibiga - kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi, assistent va *o'qituvchi-stajyor* lavozimlari kiradi (o'qituvchi-stajyor lavozimi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublika oliy ta'lim muassasalarida xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida" 2008-yil 1-avgustdagi 164-son qaroriga asosan kiritildi).

20. Professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-fevraldagi 20-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy talim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risida" nizom"ga va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarga muvofiq tanlov asosida mehnat shartnomasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Institutning prorektorlari rektor tavsiyasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

21. Institutning professor-o'qituvchilari tarkibi va ilmiy xodimlari quyidagi huquqlarga ega:

- belgilangan tartibda institut va fakultet Kengashlariga saylash va saylanish;
- institutning faoliyatiga taalluqli masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;
- institutning axborot-resurs markazi, axborot texnologiyalari markazi, o'quv va ilmiy bo'linmalarining xizmatlaridan, shuningdek, ijtimoiy-maishiy, tibbiy va boshqa bo'limlar xizmatidan jamoa shartnomasiga muvofiq foydalanish;

- o'qitishning uslub va vositalarini tanlash, o'quv va ilmiy jarayonning yuqori sifatini ta'minlovchi ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

- institut ma'muriyatining buyruq va farmoyishlari yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda murojaat qilish;

- qonunchilikda belgilangan tartibda tanlovlarda qatnashish, lavozimlarni egallash;

- o'zlari ishlayotgan kafedra, fakultetdan tashqari boshqa fakultet, kafedra,

tashkilotlarda o'rindoshlik asosida ishlash (asosiy ish joyi bilan kelishilgan holda);
-xorijiy hamkasblarning sohaga doir ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlari bilan tanishish va ular bilan fikr almashish;

- o'z fani bo'yicha uzluksiz musiqiy ta'lim tizimi uchun sifatli darslik, o'quv qo'llanma, monografiya, nota to'plamlari kabilarni tayyorlash;

-nazariy bilimlarini amaliy tajribasini, ilmiy tadqiqot olib borish uslubini, pedagogik mahoratini takomillashtirib borish;

-talabalarning ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;

-grantlar, ilmiy loyihalar, xo'jalik shartnomalarida ishtirok etish;

-O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid qonunchiligida belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

22. Institutning professor-o'qituvchilar tarkibi va ilmiy xodimlarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

-ta'lim to'g'risidagi qonun, mehnat va texnologiya intizomi, muassasa Ustavi, Ichki mehnat tartib-qoidalariga qat'iy rioya qilish;

-o'zining xizmat vazifalarini vijdonan bajarish va o'qituvchilik sha'niga dog' tushirmaslik;

-ish jarayonida muloqot qiladigan muassasa xodimlari, talabalari va boshqa shaxslar bilan hushfe'l munosabatda bo'lish;

-ish beruvchining qonuniy farmoyishlarini bajarish, har yili tasdiqlanadigan shaxsiy reja asosida o'quv-uslubiy, ilmiy va ma'naviy- ma'rifiy ishlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, xususan:

a) o'quv yuklamalari hajmini, o'quv-uslubiy, ilmiy o'quv-tashkiliy ishlarni tasdiqlangan shaxsiy reja asosida bajarish va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ishtirok etish;

b) darslik, o'quv qo'llanma tayyorlash, o'quv adabiyotlar, ilmiy maqolalar, monografiyalar yozish;

d) tarbiyaviy ishlarni olib borish, talabalar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarda bevosita ishtirok etish, shu jumladan darsdan tashqari vaqtlarda o'tkaziladigan tadbirlarda;

e) Ilmiy kengash tomonidan tasdiqlangan kafedra ilmiy mavzularida ishtirok etish;

f) o'z malakasini muntazam ravishda oshirish (institut hususiyatlarini inobatga olgan holda);

g) sinf konsertlari, mualliflik kechalari, ijodiy uchrashuvlar o'tkazish, bunda:

-mehnatni muhofaza qilish xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qoidalariga rioya qilish;

-muassasaning mol-mulkini avaylash, undan oqilona foydalanish;

-ish beruvchiga bevosita yetkazilgan moddiy zararni qoplash;

-muassasa jamoatchilik ishlarida qatnashish;

-pedagogik va ilmiy jarayonning samaradorligini ta'minlash;

-zamonaviy sivilizatsiya va demokratiya sharoitida ta'lim oluvchilarning tanlagan yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha yuksak kasbiy tayyorgarlikni, mehnatga bo'lgan qobiliyatni shakllantirish;

-chet tili va axborot texnologiyalaridan savodxonligini oshirib borish;

-ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, ijodiy qobiliyatni shakllantirish;

-“Ustoz-shogird” tizimida ishtirok etib, o'ziga biriktirilgan shogirdlar bilan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish;

-ixtisoslik yoki mutaxassislikdan kelib chiqib, milliy musiqa san'ati ijro maktabi, ijod uslublari kabi tushunchalarni singdirish;

-o'zining odobi, madaniyati, ma'naviy saviyasi bilan o'rnatilgan bo'lish;

-kiyinish madaniyatiga rioya etish;

-respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar va jahonda ro'y berayotgan yangiliklardan xabardor bo'lish;

-muassasa, fakultet, kafedra tomonidan tashkil etiladigan madaniy, ma'naviy, ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etish;

-o'zi o'qitadigan fan dasturini muntazam fan va texnika yutuqlari asosida boyitib borish;

-darslarni yuqori saviyada o'tish;

-fan yo'nalishiga tegishli yangi manbalarni topish va ular bilan talabalarni tanishtirib borish;

-har o'quv yili boshlangunga qadar o'zi o'qitadigan fan(lar)ning ishchi o'quv dasturi, kalendar-tematik rejasi va baholash bo'yicha nazoratlar jadvalini ishlab chiqish va kafedra majlisida tasdiqlatish;

-reyting (baholash, kredit belgilash) tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish;

-talabalar bilimini holisona baholash;

-yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash;

-ilmiy salohiyati va pedagogik mahoratini oshirish;

-talabalar ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;

-oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda faol qatnashish.

23. Institut professor-o'qituvchi xodimlarining chet el xizmat safarlari o'rnatilgan tartib-qoidalar asosida amalga oshiriladi.

24. Institut rahbariyati uzluksiz ishlayotgan professor-o'qituvchilar tarkibi reja asosida uch yilda kamida bir marotaba o'z malakasini oshirish kafolatini ta'minlaydi.

25. Institutning ma'muriy-xo'jalik, muxandislik-texnika, o'quv-yordamchi va boshqa xizmat xodimlarining huquq va majburiyatlari Institutning Ichki tartib-qoidalar va lavozim yo'riqnomalari bilan belgilanadi.

IV. O'quv-tarbiyaviy va ilmiy-metodik ishlar

26. Institut quyidagi yo'nalish va mutaxassisliklar bo'yicha oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning asosiy ta'lim dasturlari, qo'shimcha ta'lim (kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish)ning dasturlarini amalga oshiradi:

1) *Oliy ta'lim (bakalavriat va magistratura hamda tayanch doktorantura)*

a) ishlab chiqarishdan ajralgan holda (bakalavriat) o'quv shakli kunduzgi

5111000 -	Kasb ta'limi. 5150600-Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)
5111000 -	Kasb ta'limi. 5150700-Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'u ijrochiligi)
5150200	San'atshunoslik (musiqashunoslik)
5150600 -	Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)
5150700 -	Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'u ijrochiligi)
5151600	Xalk ijodiyoti: Baxshichilik va dostonchilik
60210900	Bastakorlik san'ati

b) ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (bakalavriat) o'quv shakli (sirtqi)

5111000 -	Professional kasb ta'limi: 5150600-Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik)
5111000 -	Professional kasb talimi: 5150700-Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'u ijrochiligi)
5150200 -	San'atshunoslik (musiqashunoslik)

v) magistratura

5A150202 -	Musiqqa san'ati
5A150601 -	An'anaviy xonandalik
5A150702 -	An'anaviy cholg'u ijrochiligi

g) tayanch doktorantura

170002 -	Musiqqa san'ati
----------	-----------------

27. Institut ta'limning asosiy ta'lim dasturlarini uch bosqichda amalga oshiradi: bakalavriat, magistratura hamda tayanch doktorantura.

Bakalavriat – ta'lim yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilimlar beruvchi, o'qish muddati 3-4 yildan kam bo'lmagan tayanch oliy ta'limdir.

Bakalavr dasturini tugatgan bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlari bo'yicha ta'lim yo'nalishi bo'yicha "bakalavr" darajasi beriladi hamda davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

Magistratura – yo'nalishning muayyan mutaxassisligi bo'yicha fundamental va amaliy bilimlar beruvchi, bakalavriat negizida, o'qish muddati 2 yildan kam bo'lmagan oliy ta'limdir.

Magistr dasturini tugatgan bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlari bo'yicha tayyorlangan muayyan mutaxassislik bo'yicha "magistr" darajasi beriladi va davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

Bakalavr va magistrlik davlat namunasidagi diplom uning egalariga kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish yoki tanlangan ta'lim yo'nalishiga va mutaxassisligiga muvofiq ta'lim muassasalarining navbatdagi bosqichlarida o'qishni davom ettirish huquqini beradi.

Oliy ta'limning turli bosqichida asosiy ta'lim dasturlari bo'yicha dastlabki ta'lim olish, ikkinchi oliy ta'lim olish sifatida qaralmaydi.

28. Tayanch oliy ta'lim muassasasi – institutda ta'lim jarayonini tashkil etish, o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan o'quv rejaları va fanlarning dasturlari, institut rektori (o'quv ishlari bo'yicha prorektor) tomonidan tasdiqlangan yillik o'quv jarayoni jadvali hamda mashg'ulotlar jadvali bilan tartibga solinadi.

Ta'lim jarayonini maqsadli yo'naltirish yo'li bilan tashkil etish, ya'ni ta'lim shakllari, uslub va vositalarni tanlash yo'li bilan oliy ta'lim muassasasi talabalariga oliy ta'limning asosiy kasbiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun zaruriy sharoitlarini yaratib berilishi lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayonining birligi davlat ta'lim standartlari bilan ta'minlanadi. Institutning umumkasbiy fanlari kafedralari, ma'naviy-ma'rifiy va sport bo'g'inlariga, talabalar va boshqa jamoatchilik tashkilotlariga, rahbarlik qilish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirib borish yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor tomonidan amalga oshiriladi.

29. Institutda o'quv mashg'ulotlarining quyidagi asosiy turlari belgilangan: ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi - yakka mashg'ulot (amaliy ijrochilik yoki ijodkorlik bilan bog'lik bo'lgan san'at yo'nalishlarida), seminar, konsultatsiya, nazorat ishi, kollokvium, mustaqil ish, amaliyot, kurs loyihasi, kurs ishi, bakalavrluk bitiruv malakaviy ish (ijodiy asar yoki ish, ijro dasturi) hamda magistrlik dissertatsiyasi (ijodiy acar yoki ish, ijro dasturi va referat).

Auditoriya mashg'ulotlarining barcha turlari uchun 45 (yoki 40 daqiqalik tanaffussiz qo'shma juft ma'ruza) daqiqalik akademik soat belgilangan. O'quv mashg'ulotlari orasidagi tanaffus kamida 10 daqiqa bo'ladi.

Ta'lim va tarbiya olib boriladigan tillar: o'zbek, rus, ingliz tillari hisoblanadi.

30. Institutda kadrlar tayyorlash ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda olib boriladi.

Oliy ta'limning asosiy kasbiy ta'lim dasturi doirasida ta'lim olishning barcha shakllari uchun o'rnatilgan tartibda ishlab chiqilgan va "O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi"da davlat ro'yxatidan o'tkazilgan davlat ta'lim standarti qo'llaniladi.

31. Institutda o'quv yili ikki semestrda bo'linadi va uning har birida talabalarning o'zlashtirishi reyting (baholash, kredit belgilash) nazorati shaklida olib boriladi.

O'zlashtiruvchi talabalarni kursdan kursga o'tkazish fakultet dekanining tavsiyasiga binoan rektor buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Talabalarni kursdan kursga shartli o'tkazish mumkin emas.

Oliy ta'limning ta'lim dasturlarini o'zlashtirish, Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan va Adliya vazirligidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalari talabalari bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida nizom"ga muvofiq tartibga solinadi, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida nizom"ga asosan bitiruvchilarning yakuniy attestatsiyasi bilan tugallanadi.

32. Institutda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'limni individuallashtirish va mustaqil ta'lim olish vositalarini, innovatsiyalar asosida modul tizimi hamda masofaviy ta'lim berishni qo'llash hisobiga mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-uslubiy ishlar amalga oshiriladi.

2) *Oliy ta'limdan keyingi ta'lim.*

Tayanch doktorantura - Musiqa san'ati.

33. Institutda oliy ta'limdan keyingi ta'lim doirasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tomonidan tasdiqlangan "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar mutaxassisliklari ro'yxati"ga muvofiq tegishli vazirlik(idora) ruxsati asosida tayanch doktorantura orqali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, shuningdek, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalar tayyorlash va himoya qilish uchun oliy ta'lim muassasasiga mustaqil izlanuvchilarni birlashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limga oid munosabatlar o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan va Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Doktorantura to'g'risida nizom" bilan tartibga solinadi. Mazkur Nizom AV 07.11.2013 i. 1707-1-son bilan ro'yxatga olingan AV Buyrug'iga muvofiq davlat reestridan chiqarilgan.

Institutda "Musiqa san'ati" ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berish yuzasidan ixtisoslashgan ilmiy kengash faoliyat ko'rsatishi mumkin.

34. Institut ilmiy kengashining tematik rejaları bo'yicha, bajariladigan ishlarining sifati hamda mehnat xavfsizligini ta'minlagan holda talabalar, tayanch doktorantlarni keng jalb etib, ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlarni olib boradi.

Ilmiy tadqiqotlar quyidagi mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi:

-fan, texnika va madaniyatning muhim yo'nalishlari bo'yicha fundamental, amaliy hamda innovatsion tadqiqotlarni bajarish uchun ajratiladigan davlat budjeti mablag'lari;

-shartnoma asosida sohaviy vazirliklar, idoralar, korxonalar, birlashmalar va boshqalar, shu jumladan, xorijiy tashkilotlar va homiylik mablag'lari.

V. Institutning tarkibi

35. Institut tarkibiga quyidagilar kiradi:

a) fakultetlar:

1. O'zbek milliy musiqa san'ati fakulteti;
2. Professional ta'lim (Kasbiy ta'lim) fakulteti;

b) kafedralar - ular quyidagi fakultetlarga birlashtirilgan:

1. O'zbek milliy musiqa san'ati fakultetiga:
 - 1.1 O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi kafedrası;
 - 1.2 Maqom xonandaligi kafedrası;
 - 1.3 Maqom cholg'u ijrochiligi kafedrası;
 - 1.4 Kompozitorlik, bastakorlik va umumiy fortepiano kafedrası.
2. Professional ta'lim (Kasbiy ta'lim) fakultetiga:
 - 2.1 Vokal va cholg'u ijrochiligi pedagoglari tayyorlash kafedrası;
 - 2.2 Doston ijrochiligi kafedrası;
 - 2.3 O'zbek adabiyoti, tillar va gumanitar fanlar kafedrası (Izoh: ushbu kafedra tarkibida pedagogika va psixologiyaga oid fanlar o'qitilishi ham ko'zda tutiladi);
 - 2.4 Sirtqi (maxsus sirtqi) bo'lim

d) bo'limlar va boshqa tuzilmalar:

- Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi;
- Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring sektori;
- O'quv-uslubiy bo'lim;
- Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi;
- Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash sektori;
- Xalqaro aloqalar bo'limi;
- Ta'lim kreditini boshqarish sektori;
- Raqamli ta'lim texnologiyalar markazi;
- Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi;
- Korrupsiyaga qarshi kurash "Kompleans-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi;
- Axborot-resurs markazi (kutubxona);
- O'qitishning texnik vositalari bo'limi;
- Texnik foydalanish va xo'jalik bo'limi;
- Reja-moliya bo'limi;
- Yuriskonsult;
- Buxgalteriya;
- Xodimlar bo'limi;
- Birinchi bo'lim;
- Devonxona va arxiv;
- O'quv-yordamchi xodimlar;
- Ovoz yozish studiyasi;
- Tahririy nashriyot bo'limi;
- "MAQOM" ilmiy-uslubiy jurnali tahririyati;
- Konsert-tijorat, reklama direksiyasi;
- Ixtisoslashtirilgan maxsus bosmaxona.

Jamoat tashkilotlari:

- O'zMMSI Kasaba uyushmasi qo'mitasi;
- O'zMMSI O'zbekiston Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti;
- O'zMMSI Xotin-qizlar maslahat Kengashi

Jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi Kengashlar:

- Ilmiy kengash;
- Murabbiylar kengashi va boshqalar.

Institut O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O'zbek milliy maqom san'ati markazi, "O'zbekkonsert" davlat muassasasi, O'zbekiston davlat filarmoniyasi kabi muassasa, korxonalar va tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikda faoliyat olib boradi.

VI. Institut boshqaruvi

36. Institutni boshqarish - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda ushbu Ustavga muvofiq yakka rahbarlik va oliy ta'lim muassasasining Kengashi, Vasiylar kengashi orqali jamoatchilik boshqaruvini uyg'unlashtirish tamoyili asosida amalga oshiriladi.

37. Institutni bevosita boshqarish rektor tomonidan amalga oshiriladi. Rektor yoki zimmasiga yuklatilgan prorektor institut faoliyatiga, shuningdek, institutning Ichki tartib qoidalari, "Oliy ta'lim to'g'risida nizom" hamda mazkur Ustavda belgilangan majburiyatlarning bajarilishi uchun mas'uldir.

Rektor O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq institut nomidan ishonchnomasiz ish olib boradi, barcha idoralar, muassasalar, korxonalarda uning vakili sifatida qatnashadi, davlat va boshqaruv organlarida, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda institut huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishi uchun vakil nomiga ishonchnomalar beradi, institutning mol-mulkiga mas'ul hisoblanadi, xo'jalik shartnomalarini tuzadi, bank muassasalarida institutning hisob raqamlarini ochadi, moliyaviy mablag'lardan o'rnatilgan tartibda foydalanish bo'yicha farmoyishlar beradi.

Rektor institutning vakolati doirasida:

-institutning barcha xodimlari, talabalari va boshqa ta'lim olayotganlar uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va topshiriqlar beradi;

-bo'ysunuvchi vazirlik (idora) bilan kelishilgan holda fakultet dekanlari va bosh buxgalteri lavozimlariga tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi;

-institut prorektorlari lavozimiga nomzodlarni tavsiya etadi va prorektorlar, dekanlarning muayyan vazifalari hamda mas'uliyatlarini belgilaydi;

-institut xodimlari va xizmatchilarini, shuningdek, ilmiy-pedagogik xodimlarini O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda ishga qabul qiladi va ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini bekor qiladi;

- institut tarkibiga kirgan ilmiy tadqiqot, tajriba-eksperimental hamda boshqa tashkilot va bo'linmalarning vazifalarini belgilaydi va ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

-institut xodimlarining lavozim oylik maoshlariga ustamalar va qo'shimchalarni belgilaydi;

-institutning boshqa vakolatli tarkibiy tuzilmalari va kasaba uyushma qo'mitasi bilan kelishgan holda Ichki tartib-qoidalarini tasdiqlaydi;

-amaldagi qonun hujjatlari yoki Madaniyat vazirligining ichki idoraviy hujjatlari talablariga zid bo'lgan institut buyruqlarini bekor qiladi;

-institutda Namunaviy shtat birliklariga muvofiq ajratilgan mablag'lar hamda ish haqi fondi, tasdiqlangan institut xodimlarining soni va lavozim maoshlari, ta'rif setkasi doirasida institut professor-o'qituvchilari tarkibi va institut xodimlarining shtat birligini tasdiqlaydi hamda lavozim maoshlarini belgilaydi;

-institut Kengashining tavsiyasiga ko'ra o'rnatilgan tartibda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq fakultetlarni, kafedralarni ochish yoki yopish haqidagi qarorlarini o'z buyrug'i bilan tasdiqlaydi.

“Oliy ta’lim muassasasining kafedra to’g’risida nizom” talablaridan kelib chiqqan holda oliy ta’lim muassasasi Kengashining tavsiyasiga ko’ra kafedralar tashkil etiladi yoki tugatiladi.

Institut rektoriga o’zi ishlayotgan oliy ta’lim muassasasida va undan tashqarida haq to’lanadigan boshqa rahbarlik lavozimida (o’quv ishlari, ilmiy va ilmiy-metodik rahbarlikdan tashqari) o’rindoshlik bo’yicha ishlashga ruxsat etilmaydi (agar bu to’g’risida hukumat qarori qabul qilinmagan bo’lsa).

38. “Oliy ta’lim to’g’risida nizom”ga muvofiq institutda oliy ta’lim muassasasi faoliyatining asosiy masalalarini ko’rish uchun OTM Kengashi tashkil etiladi.

OTM Kengashi tarkibiga rektor kiradi va Ilmiy Kengash raisi hisoblanadi, prorektorlar, fakultet dekanlari hamda mutaxassislar tayyorlovchi kafedra mudirlari, shuningdek, talabalar va institut xodimlari kasaba uyushmasi kengashi vakillari, O’zbekiston Yoshlar ittifoqi boshlang’ich tashkiloti yetakchisi kiradi. OTM Kengashining boshqa a’zolari umumiy majlisda (konferensiyada) yashirin ovoz berish yo’li bilan saylanadi. Zarur hisoblanganda professor-o’qituvchilar tarkibidan OTM Kengashiga saylanadiganlar soni rektor buyrug’i bilan belgilanadi.

OTM Kengashining vakolati, uni saylash va faoliyat yuritish tartibi ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasasining Kengashi to’g’risida”gi Nizom bilan belgilanadi.

39. Institutda Vasiylar kengashi – oliy ta’lim muassasasini boshqaruvchi jamoatchilik organi tashkil etiladi va uning tarkibiga muassis-vazirliklar, mahalliy hokimiyat, ishbilarmon doiralar, jamoatchilik tashkilotlari, jamg’arma va vasiylar, boshqa ta’lim muassasalarining vakillari kiradi.

Vasiylar kengashining tarkibi, vakolatlari, shakllantirish tarkibi va faoliyati “Vasiylar kengashi to’g’risida nizom” bilan belgilanadi.

Shuningdek, zarurat tug’ilganda ko’p yillar rahbar lavozimlarda ishlagan, katta boshqaruv tajribasiga ega san’at va madaniyat arboblardan istisno tariqasida rektor maslahat kengashi tuzilishi mumkin.

40. Institutda kasaba uyushmalari va boshqa jamoatchilik tashkilotlari faoliyat ko’rsatadi. Talabalar va xodimlar manfaatlarini himoyalashni ta’lim va fan kasaba uyushmalari hamda ularning institutda saylangan organlari amalga oshiradi. Talabalar va xodimlarni vakolat organlarining huquqlari va ularga nisbatan institut ma’muriyatining majburiyatlari quyidagilardir:

-uning vakolatiga kiritilgan vazifalarni bajarish;

-ta’lim jarayonida o’quv reja va jadvallarga muvofiq ta’lim dasturlari hajmini to’liq bajarish;

-ta’lim jarayoni vaqtida institutda ta’lim oluvchilar va xodimlarining hayoti va sog’ligi uchun javobgarlik;

-ta’lim oluvchi va institut xodimlarning huquq va erkinliklarini buzmaslik.

Amaldagi nizomlarga muvofiq institutda ilmiy va ixtiyoriy jamiyatlar, ilmiy-uslubiy, ilmiy-texnik kengashlar va komissiyalar, yosh olimlar kengashi va boshqalar tashkil etilishi mumkin.

Rektorat va OTM Kengashi o’z faoliyatida oliy ta’lim muassasasi jamoatchilik tashkilotlarining tavsiyalarini ko’rib chiqadi va o’z faoliyatlarida ularni hisobga oladi.

Institut o'z mulki bilan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarning Nizom jamg'armasida qatnashish, pullik ta'lim xizmatlar, maslahatlar va boshqa xizmatlar uchun narxlarni belgilash, soliq va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiy to'lovlardan so'ng qolgan daromadni mustaqil tasarruf etish huquqiga ega.

Institutda qiziquvchilar uchun xonandalik, cholg'u ijrochiligi mutaxassisliklari bo'yicha 1 yoki 2 yillik kasbiy-pullik kurslar tashkil etilishi mumkin.

Institutning pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatishi byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobidagi ta'lim faoliyati doirasida va uning o'rniga amalga oshirilishi mumkin emas.

Institut O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda mazkur Ustavga zid bo'lmagan shartnomalarni tuzish, majburiyatlar va boshqa shartlarni belgilash bo'yicha masalalarni mustaqil hal qiladi.

47. Institutda lavozim maoshlari mehnat shartnomasi (bitimi) tuzilayotganda "Oliy ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lash to'g'risida nizom" va mehnatga haq to'lashning yagona ta'rif setkasiga muvofiq belgilanadi. Institut xodimiga lavozim maoshi (stavka), o'z funksional vazifalarini hamda mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ishlarni bajarganligi uchun to'lanadi. Qo'shimcha maosh, ustama va boshqa moddiy rag'batlantirish tadbirlarining hajmini oliy ta'lim muassasasi mustaqil, ish haqi fondi doirasida qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va hajmda belgilaydi.

Belgilangan maoshlar attestatsiya natijasiga ko'ra faqat uni oshirish maqsadida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

48. Institut oliy ta'lim muassasasida tashkil etilgan jamoat tashkilotlariga faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur bo'lgan xonalarni ajratadi va ularni tozalashni tashkil etadi.

Institut qoshidagi tibbiy - sanitar bo'limiga, shuningdek, uning hududida joylashgan yoki institutning balansida bo'lgan hamda talaba, tinglovchi va xodimlarga xizmat ko'rsatuvchi oshxon va boshqa umumiy ovqatlanish muassasalariga isitish, yoritish va suv ta'minoti bilan ta'minlangan xonalar ajratiladi.

Institutning tegishli binolarini ta'mirlash, rekonstruksiya qilish yoki yangilarini qurish, ularning moliyaviy ta'minoti qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

VII. Xalqaro hamkorlik

49. Institut "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 68-moddasiga muvofiq ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikda ishtirok etadi, chet davlatlarning tegishli o'quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o'rnatish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo'shma o'quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega.

Chet el fuqarolari o'qituvchilik va ilmiy-tadqiqotchilik ishlari davlatlararo organining xorijiy davlatlarning ta'limni boshqarish bo'yicha tegishli organlari orasidagi shartnomalar, shuningdek institutning qonunchilikka muvofiq chet el fuqarolari va xorijiy yuridik shaxslar bilan bevosita tuzgan shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

50. Institut quyidagi huquqlarga ega:

-xalqaro nodavlat tashkilotlarga kirish;

-O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari deb qaralishi mumkin bo'lmagan, xorijiy sheriklar bilan hamkorlikdagi faoliyat to'g'risida belgilangan tartib asosida shartnomalar tuzish;

-xorijiy sheriklar ishtirokida institutning tarkibiy bo'linmalari (markazlar, laboratoriyalar va boshqa bo'linmalar)ni qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda tashkil etish.

51. Institut O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq ushbu Ustavda nazarda tutilgan va "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida belgilangan vazifalarni bajarishga, shuningdek xalqaro aloqalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

52. Institutning tashqi iqtisodiy faoliyatidan tushgan valyuta, moddiy tushumlari qonunchilikka binoan uning ustavida belgilangan faoliyatini ta'minlashi uchun ishlatiladi.

IX. Yakuniy qoidalar

53. Institut O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda quyidagilarga javob beradi:

-uning vakolatiga kiritilgan vazifalarni bajarmaganligi;

-ta'lim jarayonida o'quv reja va jadvalarga muvofiq ta'lim dasturlari hajmini to'liq bajarmaganligi;

-ta'lim jarayoni vaqtida oliy ta'lim muassasasida ta'lim oluvchilar va xodimlarining hayoti va sog'lig'i;

-ta'lim oluvchilar va institut xodimlarining huquq hamda erkinliklarining buzilganligi;

-O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hatti-harakatlar.

54. Institut O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq belgilangan tartibda qayta tashkil qilinishi yoki tugatilishi mumkin.

55. Institut Ustavi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar» O'zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 35-2021-son qaroriga asosan ishlab chiqilgan.

Ustav O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlanib, o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Institutning Ustaviga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**O'zbekiston Respublikasi
madaniyat vaziri
Yunus Rajabiy nomidagi
O'zbek milliy musiqa san'ati
institutu rektori**



O.Nazarbekov